

**AUTIZM SINDROMLI BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIM
JARAYONI, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

University of management future technologies 555-23 guruh talabasi

Xikmatova Mohira

Annotatsiya. Ushbu maqolada autizm sindromli bolalar uchun inklyuziv ta'limning ahamiyati, ularning ta'lim jarayonidagi o'ziga xos ehtiyojlari va samarali o'qitish metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda inklyuziv ta'limning hozirgi holati, mavjud muammolar va kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan takliflar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: autizm, inklyuziv ta'lim, differensial yondashuv, vizual qo'llanmalar, ABA terapiya, TEACCH modeli, PECS tizimi

Kirish. Zamonaviy jamiyatda har bir insonning sifatli ta'lim olish huquqiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim tamoyillari shaxsiy ehtiyojlarni inobatga olgan holda, nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarga teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Autizm spektr buzilishi (ASB) bo'lgan bolalar ham to'laqonli ta'lim olish huquqiga ega bo'lib, ularni umumiy ta'lim tizimiga jalb qilish va mos sharoit yaratish muhim masalalardan biridir. Autizm spektr buzilishi (ASB) – bu asosan ijtimoiy o'zaro munosabatlar, muloqot va xatti-harakatlarda o'ziga xos o'zgarishlar bilan tavsiflanadigan neyrobiologik holatdir. Autizm sindromi bo'lgan bolalar tashqi dunyoni boshqacha qabul qiladilar, o'rganish va muloqot qilishda turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Ba'zi hollarda ular o'ta yuqori intellektual qobiliyatga ega bo'lishlari mumkin, biroq aksariyat holatlarda ijtimoiy muhitga moslashishda muammolar kuzatiladi. Shuning uchun bunday bolalar uchun ta'lim jarayonini maxsus moslashtirish zarur. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, autizmlil bolalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta tashxis qo'yish va moslashtirilgan ta'lim usullaridan foydalanish autizmlil bolalarning ijtimoiy moslashuvini oshirishga yordam beradi. Shu sababli, ko'plab mamlakatlarda

inklyuziv ta'lim dasturlari joriy etilmoqda, ularda autizmli bolalar umumiy sinf o'quvchilari bilan birga ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zbekistonda ham autizmli bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimi rivojlanmoqda. Davlat tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda, ixtisoslashgan markazlar ochilmoqda va o'qituvchilar maxsus metodikalar bilan tanishtirilmoqda. Biroq, bu yo'nalishda hali ham muammolar mavjud: pedagoglarning yetarlicha tayyorgarligi yo'qligi, maxsus o'quv materiallari tanqisligi va jamiyatning autizmga nisbatan yetarlicha xabardor emasligi.

Autizm sindromli bolalarning ta'lim jarayonidagi o'ziga xos ehtiyojlari.

Autizm spektr buzilishi (ASB) bo'lgan bolalar ta'lim jarayonida o'ziga xos ehtiyojlarga ega bo'lib, ularning o'rganish uslubi, ijtimoiy muloqot qobiliyatlari va atrof-muhitga moslashish qobiliyatlari boshqalardan farqlanadi. Ushbu ehtiyojlarni tushunish va ularga mos ta'lim usullarini qo'llash autizmli bolalarning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy va muloqot qobiliyatlaridagi cheklovlariga qarasak, Autizmli bolalar ko'pincha ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular ko'z bilan aloqa qilishdan qochishlari, tengdoshlari bilan muloqot qilishda muammolarga duch kelishlari va so'zlashuv nutqining cheklanganligi yoki umuman yo'qligi kuzatilishi mumkin. Bu holatlar ularning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun, o'qituvchilar va ota-onalar oddiy va tushunarli tilda muloqot qilishlari, alternativ muloqot usullaridan (masalan, rasmlar yoki belgi tili) foydalanishlari lozim.

Autizmning sensor sezgirlik va uning ta'limga ta'siri, ko'plab autizmli bolalar atrof-muhitdagi tovushlar, yorug'lik, hidlar va teginishlarga nisbatan o'ta sezgir bo'lishadi yoki aksincha, ularga yetarlicha e'tibor bermasliklari mumkin. Masalan, haddan tashqari yorqin chiroqlar yoki shovqinli muhit ularni chalg'itishi yoki stressga olib kelishi mumkin. Sinf xonasida shovqinni minimallashtirish, ortiqcha yorug'likdan qochish va bolalarga shaxsiy "xavfsiz hudud" yaratish orqali bu muammolarni kamaytirish mumkin.

Autizmli bolalar yangi sharoitlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch

kelishlari mumkin. Ular kutilmagan o'zgarishlar yoki odatdagi tartibning buzilishiga salbiy munosabat bildirishlari mumkin. Shuning uchun, dars jadvali va sinf tartibini oldindan rejalashtirish, har qanday o'zgarish haqida bolalarni oldindan xabardor qilish va ularga yangi sharoitga tayyorgarlik ko'rish imkonini berish muhimdir. Bundan tashqari autizmli bolalarning diqqatini uzoq vaqt davomida bir joyga qaratish qiyin bo'lishi mumkin. Ba'zilar faqat o'zlari qiziqqan mavzularga e'tibor qaratadilar, boshqalari esa bir vazifadan ikkinchisiga o'tishda qiynaladilar. Darslarni qisqa segmentlarga bo'lish, har bir qismdan keyin qisqa tanaffuslar tashkil qilish va o'qitishda vizual qo'llanmalar, grafikalar hamda interaktiv texnologiyalardan foydalanish samarali bo'lishi mumkin. Ba'zi autizmli bolalar akademik jihatdan juda qobiliyatli bo'lishlari mumkin, boshqalari esa ko'proq amaliy va vizual o'rganish usullarini talab qiladilar. Har bir bola uchun individual ta'lim rejasi ishlab chiqish, o'qitish jarayonida bolaning qiziqishlarini inobatga olish va darslarni ko'proq vizual hamda interaktiv materiallar orqali tushuntirish ularning muvaffaqiyatli ta'lim olishlariga yordam beradi.

Statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi (CDC) tomonidan 2020-yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, 8 yoshli bolalar orasida autizm spektr buzilishi tarqalishi 1:36 nisbatida aniqlangan, ya'ni har 36 boladan bittasida autizm kuzatilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotda autizmli bolalar orasida o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan 3,8 baravar ko'proq ekanligi aniqlangan. Bu ma'lumotlar autizmli bolalarning ta'lim jarayonida o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi (1. Maenner MJ, et al.).

Autizm sindromli bolalarning ta'lim jarayonida ularga maxsus sharoit yaratish muhimdir. Har bir bolaning ehtiyojlariga mos ravishda dars metodikasini moslashtirish ularning o'qitish jarayonida yaxshiroq natijalarga erishishlariga yordam beradi. Bu esa inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish va autizmli bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga imkon yaratadi.

Inklyuziv ta'limning afzalliklari va muammolari. Autizm spektr buzilishi (ASB) bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim ularning ijtimoiy, akademik va psixologik rivojlanishiga katta foyda keltirishi mumkin. Biroq, bu jarayonda

o'qituvchilar, ota-onalar va jamiyat duch keladigan muammolar ham mavjud. Inklyuziv ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun maxsus metodikalardan foydalanish, pedagoglarning tayyorgarlik darajasini oshirish va jamiyat bilan samarali hamkorlik qilish talab etiladi. Inklyuziv ta'lim tizimida autizmli bolalar o'z tengdoshlari bilan birga o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Tengdoshlari bilan o'zaro muloqot qilish orqali autizmli bolalar atrof-muhitga moslashishni o'rganadilar, o'zini tutish qoidalarini anglaydilar va o'zlarining mustaqillik darajasini oshiradilar. Akademik jihatdan olib qaraganda, inklyuziv ta'lim har bir bola uchun individual yondashuv asosida bilim berishga yo'naltirilgan. Maxsus o'qitish metodikalari, moslashtirilgan dars materiallari va yordamchi texnologiyalar orqali autizmli bolalar o'zlariga mos sur'atda bilim olishlari mumkin. Bu ularning qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlariga hamda kelajakda jamiyatning faol a'zolariga aylanishlariga yordam beradi. Bundan tashqari, inklyuziv ta'lim tizimida sog'lom bolalar ham manfaat ko'radilar. Ular autizmli bolalar bilan o'qish orqali bag'rikenglik, sabr-toqat va hamdardlik kabi fazilatlarni shakllantiradilar. Bu esa kelajakda inklyuziv jamiyatni yaratishga yordam beradi. Inklyuziv ta'lim samaradorligining asosiy omillaridan biri o'qituvchilarning malakasi va ularga yetarlicha tayyorgarlik berilishidir. Afsuski, aksariyat umumiy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar autizmli bolalar bilan ishlash uchun yetarlicha bilim va tajribaga ega emaslar. Maxsus pedagogika bo'yicha o'qitilmagan pedagoglar autizmli bolalarning ehtiyojlarini tushunishda va ularga mos metodikalar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ko'p hollarda o'qituvchilar autizmli bolalarning xatti-harakatlarini noto'g'ri talqin qiladilar yoki ularga mos ta'lim metodikasini tanlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuningdek, ba'zi hollarda autizmli bolalar ko'p e'tibor talab qilgani uchun, boshqa o'quvchilarga yetarlicha vaqt ajratish qiyinlashadi. Bu esa umumiy sinf muhitida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Muammoni hal qilish uchun inklyuziv ta'limga ixtisoslashgan o'qituvchilar tayyorlash, amaldagi pedagoglarning malakasini oshirish hamda maxsus treninglar tashkil qilish muhimdir. O'qituvchilarni autizmli bolalar bilan ishlash bo'yicha nazariy va amaliy tayyorgarlikdan o'tkazish ularning dars jarayonini samarali olib borishiga

yordam beradi. Shuningdek, sinf muhitini autizmli bolalar uchun qulay qilish usullari bo'yicha treninglar o'tkazish ham foydali bo'ladi.

Inklyuziv ta'lim muvaffaqiyatli bo'lishi uchun jamiyat va ota-onalar bilan yaqin hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar o'z farzandining ehtiyojlarini eng yaxshi biladigan insonlardir, shuning uchun ularning fikrlarini inobatga olish va o'qitish jarayoniga jalb qilish samaradorlikni oshiradi. Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi doimiy muloqot bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. O'qituvchilar ota-onalarga bolalarining o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklari haqida muntazam axborot berishlari kerak. Shuningdek, ota-onalarga farzandlari bilan uy sharoitida qanday ishlash bo'yicha tavsiyalar berish ham muhimdir. Jamiyat darajasida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash va autizmli bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish zarur. Ko'pchilik insonlar autizm haqida yetarli bilimga ega emaslar va autizmli bolalarning xatti-harakatlarini noto'g'ri talqin qiladilar. Bu esa ular va ularning oilalari uchun qo'shimcha to'siqlar yaratadi.

Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va maxsus dasturlar orqali autizm spektr buzilishi haqida xabardorlikni oshirish muhim ahamiyatga ega. Autizmli bolalarga ko'maklashish bo'yicha jamoaviy dasturlar, maxsus kurslar va jamiyat a'zolari uchun seminarlar tashkil etish orqali ularning jamiyatga integratsiyasiga yordam berish mumkin. Shuningdek, hukumat va nodavlat tashkilotlar inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqishlari va ta'lim muassasalarini qo'shimcha resurslar bilan ta'minlashlari kerak.

Autizm sindromli bolalar uchun samarali ta'lim metodlari. Autizm spektr buzilishi (ASB) bo'lgan bolalar uchun ta'lim jarayoni o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Ularning ehtiyojlarini hisobga olib ishlab chiqilgan maxsus metodlar ularning akademik, ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday bolalar uchun differensial yondashuv, individual ta'lim rejasi, vizual qo'llanmalar, interaktiv texnologiyalar va maxsus o'qitish usullari samarali natija beradi. Autizmli bolalar turli darajadagi rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgani uchun ularga nisbatan differensial yondashuv qo'llash juda muhimdir. Bu yondashuv bolaning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda

ta'lim jarayonini tashkil qilishni anglatadi. Har bir bolaning bilim olish sur'ati, qiziqishlari va kognitiv xususiyatlari turlicha bo'lgani uchun individual ta'lim rejasi (ITR) ishlab chiqiladi. Individual reja asosida o'qitish bolaga mos keladigan o'quv materiallarini tanlash, o'rganish jarayonini strukturaviy tarzda tashkil qilish va natijalarga erishish imkonini beradi. Autizmli bolalar uchun vizual qo'llanmalar va interaktiv texnologiyalar katta ahamiyatga ega. Ular odatda vizual ma'lumotlarni eslab qolishga moyil bo'lganligi sababli, matn va og'zaki tushuntirishlardan ko'ra, rasmlar, diagrammalar, grafikalar va video materiallar orqali ma'lumotni tushunish osonroq bo'ladi. Dars jarayonida kartochkalar, piktogrammalar va grafik jadvaldan foydalanish bolalarning o'rganish jarayonini yengillashtiradi. Interaktiv texnologiyalar esa autizmli bolalar uchun o'qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Planshetlar, maxsus kompyuter dasturlari va o'yin ilovalari orqali ular mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishi, xatti-harakatlarini rivojlantirishi va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishi mumkin. Masalan, maxsus mobil ilovalar yordamida bolalar tovushlar, so'zlar va jummalarni vizual ravishda bog'lashni o'rganishlari mumkin.

Autizmli bolalar bilan ishlashda bir nechta maxsus o'qitish usullari mavjud bo'lib, ular orasida TEACCH, ABA va PECS keng qo'llaniladi. TEACCH (Treatment and Education of Autistic and related Communication-handicapped Children) usuli autizmli bolalarni o'qitish va ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan. Ushbu metod bolalar uchun tartibga solingan va oldindan rejalashtirilgan muhit yaratishga asoslanadi. TEACCH yondashuvi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'quv jarayonini strukturaviy tashkil qilish

Kundalik rejimni qat'iy belgilash

Vizual materiallardan keng foydalanish

Har bir bolaning individual ehtiyojlariga mos ta'lim rejasi tuzish

Bu usul bolalarning mustaqilligini oshirishga va ularni jamiyatga moslashtirishga yordam beradi. ABA (Applied Behavior Analysis) yoki xulq-atvorni tahlil qilish terapiyasi esa autizmli bolalar uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu metod bola tomonidan bajariladigan harakatlarni kuzatish, ularning sabablari va natijalarini tahlil qilishga asoslangan. ABA terapiyasi quyidagi tamoyillar

asosida ishlaydi:

Ijobiy mustahkamlash – bola to'g'ri xatti-harakat qilganda mukofotlash

Keraksiz xatti-harakatlarni kamaytirish

Oddiy harakatlardan murakkab ko'nikmalarga bosqichma-bosqich o'tish

Bola bilan muntazam shug'ullanish va natijalarni kuzatish

ABA terapiyasi orqali autizmli bolalar yangi ko'nikmalarni o'rganish, o'ziga xizmat qilish, ijtimoiy muloqot qilish va akademik bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. PECS (Picture Exchange Communication System) – rasmlar orqali muloqot qilish tizimi ham autizmli bolalar bilan ishlashda keng qo'llaniladi. Ushbu usul og'zaki muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch keladigan bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular rasmlar yordamida o'z fikrlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. PECS orqali bola:

O'z istaklarini rasmlar orqali tushuntirishni o'rganadi

O'zaro muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi

Keyinchalik og'zaki so'zlashuvga o'tish imkoniyatiga ega bo'ladi

Bu metod ayniqsa nutq rivojlanishida orqada qolgan bolalar uchun juda foydalidir va ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'zbekistonda autizm sindromli bolalar uchun inklyuziv ta'limning holati. O'zbekistonda autizm sindromli bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimi so'nggi yillarda rivojlana boshlagan bo'lsa-da, hali to'liq shakllanmagan. Mamlakatda maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilik va davlat dasturlari mavjud, ammo ularni amalga oshirishda hali ham muammolar uchrab turibdi. Hozirda O'zbekistonda autizmli bolalar uchun ta'limni rivojlantirishga oid "Ta'lim to'g'risida" gi qonun, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"2 gi qonun va 2023–2025 yillarga mo'ljallangan nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturi amal qilmoqda. Bu hujjatlar inklyuziv ta'limni rivojlantirish, maktablarda maxsus sharoitlar yaratish va o'qituvchilarni tayyorlashni nazarda tutadi. Maktablarda va maxsus markazlarda autizmli bolalar bilan ishlash imkoniyatlari cheklangan. Ba'zi umumiy ta'lim maktablari inklyuziv ta'lim elementlarini joriy qilgan bo'lsa ham, maxsus pedagoglar,

defektologlar va logopedlar yetishmovchiligi muammo bo'lib qolmoqda. Toshkent, Samarqand, Namangan kabi yirik shaharlarda maxsus reabilitatsiya markazlari va xususiy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ular bolalarga terapevtik va ta'lim xizmatlarini ko'rsatmoqda. Biroq bunday markazlar barcha bolalar uchun yetarli emas va ularning aksariyati pullik xizmatlar ko'rsatadi.

Xulosa. Autizm sindromli bolalar uchun inklyuziv ta'lim ularning ijtimoiy va akademik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq samarali natijalarga erishish uchun individual yondashuv, maxsus metodlar va o'qituvchilarning malakali bo'lishi juda muhim. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim rivojlanayotgan bo'lsa-da, hali ko'plab muammolar mavjud. Kelajakda inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish, maxsus markazlar va pedagoglarni ko'paytirish, ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim. Shu orqali autizmlı bolalarga yanada keng imkoniyatlar yaratish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Yolande Loftus, BA, LLB "Autism Statistics You Need To Know in 2024" 2025 www.autismparentingmagazine.com
3. Maenner MJ, Warren Z, Williams AR, et al. Prevalence and Characteristics of Autism Spectrum Disorder Among Children Aged 8 Years — Autism and Developmental Disabilities Monitoring Network, 11 Sites, United States, 2020. MMWR Surveill Summ 2023;72(No. SS-2):1–14. DOI: <http://dx.doi.org/10.15585/mmwr.ss7202a1>
4. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakllantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
5. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

6. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
7. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
8. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
9. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
10. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
11. <https://lex.uz/uz/docs/-4872355?ONDATE=25.05.2024%2000>